

ZOONIM KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TADQIQI

Mastura TADJIYEVA

Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi

Lola EShBOLTAYEVA

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ixtisosligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqola tilshunoslikda frazeologik birliklar va ingliz va o'zbek tillarida zoonim komponentli frazeologik birliklarning o'rganilishi haqida so'z boradi. Zoonim komponentli frazeologizmlar va maqollar yuzasidan tilshunos olimlarning fikrlari bildiriladi va misollar bilan asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *frazeologik birliklar, maqol, zoonimlar.*

So'nggi paytlarda tilshunoslarning xalq ma'naviyatini aks ettiruvchi til frazeologiyasiga qiziqishi sezilarli darajada oshdi. Frazeologik birliklarda odamlarning kundalik hayoti, tarixi, axloqiy me'yorlari aniq namoyon bo'ladi. Tilning frazeologik boyligini bilish va faol egallash nafaqat nutqni bezatadi va boyitadi, balki odamlarning mentalitetini yaxshiroq anglashga yordam beradi. Frazeologik birliklar har qanday tilning ajralmas qismi bo'lib, so'zlovchilarning o'ziga xos madaniy tarixi va dunyoqarashini aks ettiradi. Ayniqsa, ingliz va o'zbek tillarining frazeologik birliklar qatlamidan zoonim komponentli frazeologik birliklar qismini chog'ishtirib o'rganish ikki til o'rtasidagi lingvistik va madaniy o'xshashlik va farqlar haqida tushunchaga ega bo'lish imkonini beradi.

V.A. Maslovaning ta'biricha, "tilning frazeologik fondi xalqning madaniyati va mentaliteti haqidagi eng qimmatli manbadir, unda xalqning afsonalari, urf-odatlar, marosimlari, bayramlari, odob-axloqi va hokazolar mujassamlashgan"[3,204].

A.E. Mamatov ta'riflashicha, "frazeologik birliklar u yoki bu xalqning ma'naviy qadriyatlar, milliy tafakkuri, hayot tarzi hamda urf-odatlarini namoyon etadigan til hodisasidir"[5,11].

Frazeologizmlarning qamrovi va chegaralari haqida gapirganda, uning tor va keng tushunchasi borligini aytishimiz mumkin. Frazeologiyani tor doirada tushunuvchi olimlar frazeologizmlarga faqat yaxlit ko'chma ma'noli barqaror birliklar (idiomalar)ni

kiritishadi. Keng tushuncha tarafdorlari esa frazeologiya tarkibiga boshqa barcha turdagi barqaror birliklarni, shu jumladan maqollar, matallar, aforizmlarni ham kiritadilar.

H.H. Amosova, V.P. Felitsina, S.I. Ojegov kabi tilshunoslar maqollarni tilning frazeologik tarkibiga kiritmaydilar. Bu tadqiqotchilar maqollarning hukm xarakteriga ega ekanligini ta’kidlagan holda, ularni frazeologik birliklardan semantikasi va sintaktik tuzilishiga ko’ra farqlanadi, deb hisoblaydilar.

A.V. Kunin, V.N. Teliya, I.N. Savitskiy, A.A. Reformatskiy, N.M. Shanskiy, V.V. Vinogradov kabi olimlar esa semantika va nutqda tugallangan shaklda takrorlanish xususiyatlaridan kelib chiqib, maqol va matallarni frazeologik birliklarga kiritadilar.

Frazeologik birliklarning butun majmuasini o’rganish ularni turli mezonlarga ko’ra tasniflashni o’z ichiga oladi. A.V. Kunin frazeologik birliklarning 4 ta sinfini ajratdi: 1) predmet, hodisa, harakat, holat, sifat va hokazolarni bildiruvchi nominativ frazeologik birliklar. Nominativ frazeologik birliklar tarkibiga ergash gap tarkibidagi frazemalar va iboralar kiradi. Ushbu turdagi frazeologik birliklar quyidagi turlarga bo’linadi: substantiv, adektiv, adverbial va fe’lli 2) fe’lli frazeologik birliklar bilan ifodalangan nominativ va nominativ-kommunikativ frazeologik birliklar; 3) his-tuyg’ularni ifodalovchi, kesim xarakteriga ega bo’lgan undov va modal frazeologik birliklar; 4) qisman predikativ bo’lmagan, jumla bo’lgan frazeologik birliklarni o’z ichiga olgan kommunikativ frazeologik birliklar. Kommunikativ frazeologik birliklar orasida iboralar ikki guruhga bo’linadi: matallar va maqollar [2,19].

O’zining qator tadqiqotlari bilan o’zbek frazeologiyasiga asos solgan filologiya fanlari doktori, professor Sh.Rahmatullayev faqat ko’chma ma’noga asoslangan barqaror birliklarnigina frazeologizmlar tarkibiga kiritdi. Sh.Rahmatullayev: “Bittadan ortiq leksik negizdan tarkib topgan, tuzilishi jihatidan birikmaga, gapga teng, mazmunan so’zga ekvivalent, yaxlitligicha ustama ko’chma ma’no anglatuvchi lug’aviy birlikni ibora (frazeologik birlik)” [7,56] deb ataydi.

A.E. Mamatov “Frazeologiya tarkibida o’rganilayotgan maqol, matal, aforizm, hikmatli so’z, topishmoqlar alohida o’rganilishi lozim bo’lgan mavzular”[4,11] ekanligini ta’kidlagan holda iboralarga quyidagicha ta’rif beradi: “ibora tilning alohida

birligi bo‘lib, tuzilishiga ko‘ra erkin bog‘lanma yoki gapga teng, to‘liq yoki qisman semantik qayta shakllangan obrazli, turg‘un so‘z birikmalarini o‘z ichiga oladi”[4,11].

Shunday qilib, frazeologiyaning hajmini tor doirada tushunuvchi olimlar uni keng doirada tushunuvchi olimlarga fikran qarama-qarshi pozitsiyani egallab kelmoqdalar. Hozirda tildagi maqollarni o‘rganish frazeologiyaning alohida sohasi hisoblanuvchi paremiologiyada (grekcha *poromia* – maqol, matal) amalga oshirilmoqda va turli tillardagi maqollarni qiyosiy chog‘ishtirish paremiologiyada tadqiq qilinmoqda.

Umumiy frazeologik ma‘noning shakllanishida maxsus komponentli frazeologik birlik asosiy rol o‘ynaydi. Bu komponentlardan biri zoonimlar bo‘lib, bu fauna olami vakillari nomlari bo‘lib, bu nomlar turli xil hayvonlar, qushlar, hasharotlar, sudralib yuruvchilar, baliqlarni bildiruvchi ot tushuniladi. Zoonim komponentli frazeologik birliklarning aksariyatida metaforik ma‘no kasb etadi, unda hayvonlarning nomlari odamning xususiyatlarini, uning u yoki bu fazilatlarini, tashqi ko‘rinishini, xarakterini va aqliy qobiliyatlarini aks ettirish uchun xizmat qiladi. Masalan, tulki – “ayyorlik va chaqqonlik”, bo‘ri – “ochko‘zlik va yirtqichlik”, cho‘chqa – “ochko‘zlik va ifloslik”, ilon – “makkorlik, xiylakorlik”, ayiq – “qo‘pollik, beso‘naqaylik”, arslon – “kuchlilik, oliyjanoblik”, qo‘y – “yuvvoshlik va nomustaqillik”, chumoli – “mehnatkash”, eshak – “ahmoqlik”, it – “vafodorlik” va h.[5, 89]

Tilshunoslikda zoonim tadqiqiga oid ishlar salmoqli o‘rin egallaydi. G.A. Jevako va L.V. Shubina ta’kidlashicha, frazeologik birliklar milliy madaniyatning o‘ziga xos etalonlari va stereotiplari bo‘lib, ularning mazmuni frazeologik birliklarning madaniy va milliy konnotatsiyasida mujassamlangan. Madaniy va milliy o‘ziga xoslik, dunyoqarashning o‘zi ma’lum bir xalqqa xos bo‘lgan frazeologik birliklar obrazlarida namoyon bo‘ladi [1,38-44]. Masalan, *to drink like fish* (baliqday ichmoq, ya’ni, ko‘p ichmoq), *a fat cat* (semiz mushuk, ya’ni. muhim shaxs) [2, 329]

Hayvonlarni simvallashtirish asosida o‘zbek tilida asosan salbiy ma’noli frazeologizmlar shakllanadi. Chunki hayvonlar timsoli inson nazdida aksariyat hollarda salbiylikni anglatadi: *tulkiday ayyor, ammamning buzog‘i, ilonning yog‘ini yalagan, it hurar karvon o‘tar*[5, 89].

Frazeologik birliklarning individual ma'nosini shakllantirishda zoonimlar muhim vazifani bajaradi. Zoonim frazeologik birlik tarkibiga kirsam, u leksik ma'nosini yo'qotadi. H.A. Saidova o'z ilmiy ishida o'zbek tilida eng ko'p ishlatiladigan hayvon nomlarini tanlab olgan va zoonimlarni atash, nomlash va tasvirlash kabi ikki vazifada ishlatilishini yozgan. Jumladan, "Hayvon nomlari atash vazifasini bajarganda o'z (to'g'ri) ma'nosida ishlatiladi. Tasvirlash vositasi sifatida qo'llanganda esa shaxsni tavsiflovchi muhim vosita sanaladi va ko'chma ma'noda ishlatiladi. Masalan, Arslon:

Lisoniy ma'no: *Katta jussali, chaqqon, qo'rqmas, yirtqich hayvon.*

Ko'chma ma'nolari: 1) "*rahbar*", "*hokim*", "*qo'mondon*". "*shoh*"; 2) "*sog'lom*", "*yetilgan*", "*baquvvat*", "*kuchli*"; 3) "*haybatli*", "*darg'azab*"; 4) "*chaqqon*", "*epchil*"; 5) "*izidan qaytmas*", "*bir so'zli*". [8,35]

Hozirgi zamon tilshunosligida zoonimlarning leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish turli yo'nalishlarda olib borilmoqda. Bunda, asosan, hayvon nomlarining semantik tuzilishiga alohida e'tibor beriladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarni zoonimning (masalan, "it", "mushuk", "ot") asosiy komponent sifatida mavjudligi, ko'chma ma'noda ishlatilganligi hamda keng tarqalganligiga qarab tanlab olinadi. Har ikkala tilda ham faol qo'llanilgan zoonim komponentlarga it (dog in the manger; dog's life; it kunini ko'rmoq), mushuk (let the cat out of the bag;(fight) like cats and dogs; ichini mushuk tatalayapti), ot (hold your horses, horses for courses; otday bo'lmoq), eshak (An ass between two bundles of hay; Eshak Makkaga borgani bilan hoji bo'lmas), ilon (a snake in the grass; ilonday avramoq), tulki (tulkiday ayyor), cho'chqa (make a pig of yourself, to eat like a pig), sigir (till cows come home) kabi hayvon turlarini kiritish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ingliz va o'zbek tillaridagi zoonim komponentli frazeologik birliklarni qiyosiy tadqiq qilish umumiy konseptual metaforalarni ham, ushbu iboralar ichida kodlangan turli madaniy simvollarni ham ochib beradi. Zoonimlar har bir millat til boyligida mavjud bo'lib, tabiat, jamiyat haqidagi xulosalarni, inson fe'l-atvori, harakatiga xos ijobiy va salbiy vaziyatlarni namoyon etishga, ta'sirchanlikka xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Жевако Г.А., Шубина Л.В. Таксономическая основа характеризующих фразеологизмов в русском и английском языках. // Университетские чтения – 2006. Пятигор. гос. лингвист. ун-т. – Пятигорск, 2006. – С. 38-44.
2. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. М., Издательский центр «Феникс», 1996
3. Маслова В. А. Лингвокультурология. 2-е издание. – М.: Academia, 2004. – 204 с.
4. Маматов А. Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: филол. фан. докт. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 56б.
5. Маматов А. Э. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент.: “Наврўз” нашриёти, 2009. – 260б.
7. Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. – Тошкент: Фан, 1970. – Б.56.
8. Саидова Ҳ. А. Ўзбек тилида ҳайвон номларининг шахс тавсифи вазифасида қўлланилиши: Филол. фанлари номзоди... дисс. – Бухоро, 1995. 35-бет
9. Fayzullaevna T. M. Comparative analysis of phraseological units of the concept “love” in the English and Uzbek languages //Berlin studies transnational journal of science and humanities. – 2022. – Т. 2. – №. 1.6 Philological sciences.

INGLIZ TILIDAGI ILMIY MATNNING LISONIY XUSUSIYATLARI

Maxmud MUKUMOV

Termiz davlat pedagogika instituti

Xorijiy tillar nazariyasi va metodikasi kafedrasi, katta o'qituvchi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada barcha vazifaviy uslublarda uchraydigan o'ziga xosliklar xususida fikrlar o'z aksini topgan. ingliz tili ilmiy uslubiga doir matnlarida uchraydigan lisoniy belgi-xususiyatlar qisman yoritilgan. Jumladan, ilmiy matnlarda uchraydigan leksik, morfologik sintaktik jihatlar haqida fikr yuritiladi.*

Ingliz tilining ilmiy uslubi boshqa uslublardan o'ziga xos leksik tarkibi bilan ajralib turadi va ayni fikrni o'zbek tili borasida ham bildirib o'tish mumkin. Ilmiy uslubning differentsial belgilaridan biri unda abstrakt semantikali so'zlarning juda ko'p ishlatilashi hisoblanadi. Shular jumlasiga ingliz tilidagi tibbiyotga va matematikaga oid matnlarda uchraydigan quyidagi so'zlarni kiritish mumkin: *range, conditions, problems, issue, importance, diagnoses, trend, response, rates, percentage points, acceptance,*